

“BOBURNOMA”DA ADABIY MIHIT TASVIRI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14261857>

Xoliqulova Gulsanam Yorqulovna,

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand

davlat universiteti dotsenti, filologiya fanlari nomzodi

Elektron pochta: gulsanamyorqulovna@mail.ru

Annotatsiya

Hindistonda Zahiriddin Muhammad Bobur tomonidan asos solingan “Buyuk Boburiylar saltanati” va unda shakllangan adabiy muhit, uning vakillari, turkiyzabon ijodkorlar haqida bir necha forsiy va turkiy tilda yaratilgan adabiy-tarixiy manbalar orqali ma’lumotlar yetib kelgan. Bu manbalar ichida “Boburnoma” asari birlamchi va muhim manbadir. Mazkur maqolada “Boburnoma” ma’lumotlari asosida adabiy muhit va bunda Boburning tutgan o’rni xususida so’z yuritildi.

Kalit so’zlar

“Boburnoma”, “Buyuk Boburiylar saltanati”, adabiy muhit, turkiy adabiyot, adabiyot homiysi.

Аннотация

Сведения о «Великой Империи Бабури», основанной Захириддином Мухаммадом Бабуром в Индии, и сформировавшейся в ней литературной среде, ее представителях, тюркоязычных художниках, поступили через ряд персидских и турецких литературно-исторических источников. Среди этих источников произведение «Бобурнома» является первостепенным и важным источником. На основе информации «Бобурномы» в статье рассматривается литературная среда и роль Бабура в ней.

Ключевые слова

«Бобурнома», «Великая империя Бабура», литературная среда, турецкая литература, покровитель литературы.

Annotatsion

Information about the “Great Empire of Babur” founded by Zahiriddin Muhammad Babur in India and the literary environment formed in it, its representatives, and Turkic-speaking creators has been obtained through several

literary and historical sources created in Persian and Turkic languages. Among these sources, the work “Boburnama” is the primary and most important source. This article discusses the literary environment and Babur’s role in it based on the information in “Boburnama”.

Key words

“Boburnama”, “Great Empire of Babur”, literary environment, Turkish literature, patron of literature.

KIRISH. Adabiy muhit o‘zbek adabiyotining yirik vakili Zahiriddin Muhammad Bobur nomi bilan ham bog‘liq. U 1526-yilda Hindistonning Panipat shahri atrofida Dehli saltanati hukmdori Sulton Ibrohimni (1517-1526) yengib, Shimoliy Hindistonda “Buyuk Boburiylar saltanati”ga asos soldi va bu saltanat qariyb uch asrdan ko‘proq vaqt (1526-1858) mobaynida Hindistonda har tomonlama ravnaq topgan davlat sifatida gullab yashnadi. Bobur nafaqat siyosiy arbob, shuningdek, ijodkor sifatida o‘zidan katta meros qoldirishi bilan birga, madaniyat homiysi sifatida o‘z atrofida ilm-fan, ijod ahlini birlashtirdi. Buning natijasida XV asrning oxiri XVI asrning birinchi choragidagi ijtimoiy-siyosiy voqealar hamda iqtisodiy inqiroz yoqasida bo‘lgan Hindistonga Xuroson va Movarounnahrda fan, san‘at va adabiyot, madaniyat namoyandalaridan iborat yangi bir guruh kirib keldi. [4, 8, 9]

Bobur o‘zining turkiy tildagi realistik tasvirga to‘yingan lirik va epik asarlari bilan o‘z davri va o‘zidan keyin bir qancha ijodkorlarga adabiy ta’sir ko‘rsata oldi va Hindistonda turkiy tildagi adabiyotning vujudga kelishiga tamal toshini qo‘ydi. Buning natijasida adabiy muhit vakillari hind, urdu, fors-tojik, arab tillarida yaratgan asarlari qatorida turkiy tildagi asarlari bilan ham tarixga muhrlandilar. Jumladan, Bayramxon, Xumoyun Mirzo, Hindol Mirzo, Askariy Mirzo, Komron Mirzo, Abulqosim (Komron Mirzoning o‘g‘li), Azfariy, Forig‘iy, Diyda, Johila, Yusuf Faryobiy, Saminiy-Fahm, Manzariy Samarqandiy, Mir Mahmud Mahviy, Ulfatiy, Yazdiy, Tazarviy Abhariy, Sheroziy, Fahmiy Kazviniy, Navidiy, Siyakiy kabi shoirlar Bobur asos solgan adabiy muhit vakillaridir. [Bu haqda qarang: 1, 2, 3, 6, 7, 9, 10, 11, 12]

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR. Zahiriddin Muhammad Bobur Hindistonda tashkil etgan adabiy muhit, turkiy tildagi adabiyot va uning vakillari haqida ma’lumotlar, ularning adabiy merosi va undan namunalar bizgacha bir qancha qo‘lyozma, tarixiy va adabiy manbalar orqali yetib kelgan. Jumladan, Boburning “Boburnoma”, Gulbadanbегinning “Humoyunnoma”, Mirzo Haydarning “Tarixi Rashidiy”, Xondamirning “Habib us-siyar”, “Qonuni

Humoyun" ("Humoyunnoma"), Ibrohim bin Jarirning "Tarixi Xumoyuniy", Fayzi Sirhindning "Tarixi Humoyunshohiy", Boyazid Bayotning "Tarixi Humoyun", Abulfazl Allomiyning "Akbarнома", "Oyini Akbariy" ("Akbar tuzuklari"), Ahmad Hirotiyning "Tabaqoti Akbariy", Mulla Ahmad Tattaviyning "Tarixi alfiy", Orif Qandahoriyning "Tarixi Akbariy", Abdulqodir Badauniyning "Muntaxab at-tavorix", Jahongir bin Akbarning "Jahongirнома", Qosim Lohuriyning "Majolisi Jahongiriy", Muhammad Sharifning "Iqbolnomayi Jahongiriy", Tohir Sabzavoriyning "Ravzat at-Tohiriy", Skandar Gujarotiyning "Mir'oti Skandariy", Xokiyi Sheroziyning "Muntaxab at-tavorix", Ne'matulloh Hiraviyning "Tarixi Shohjahoniy", Sayid Jamol Husaynning "Tarxonoma", Sunjon Ray Munshiyning "Xulosat at-tavorix", Abdulboqi Nihavandiyning "Maosiri Rahimiy", Muhammad Musta'idxon Soqiyning «Ma'osiri Olamgiri», Mirzo Olim Mushrufning "Ansob us-salotin", Muhammad Qosim Hindshohning "Tarixi farishta", Amin Qazviniyning "Podshohnoma", Inoyatxonning "Shoh Jahonnoma", Seydi Ali Raisning "Mir'otil mamolik" kabi tarixiy asarlari; Faxriy ibn Muhammad Amiriy Hiraviyning "Ravzat us-salotin", Som Mirzo Safaviyning "Tuhfayi Somiy", Hasanxoja Nisoriyning "Muzakkiri ahbob", Xoja Orif Baqoiy Andijoniyning "Majma' ul-fuzalo", Mutribiy Samarqandiyning "Tazkirat ush-shuaro", "Nusxayi zeboyi Jahongir", Javhar Oftobachining "Tazkirat ul-voqeot", Jahongir podshohning "Tazkirayi Jahongir podshoh", Sayliy Samarqandiyning "Tazkirat ush-shuaro", Sodiqbek Afshar Kitobdorning "Majma' ul-xavos", Aynuddavla ibni Yahyo Sayfi Husayniyning «Nafoisul-maosirot», Muhammad Muzaffar Husayn Sabo ibn Mavlaviy Muhammad Yusufning "Ro'zi ravshan", Mir Alisher Qone'ning "Makolot ush-shuaro", Aliqulixon Volaning "Riyoz ush-shuaro", Mirsiddiq Hashmatning "Tazkirat us-salotin", Po'lotjon Qayumiyning "Tazkirayi Qayumiy" tazkiralari mavzuga doir qimmatli ma'lumotlar va adabiy matnlarni o'zida qamraganligi bilan ahamiyatlidir [Тазкиралар ҳақида қаранг: [3: 29-37]. Mazkur manbalar ichida Zahiriddin Muhammad Boburning "Boburnoma" asari alohida ahamiyatga ega bo'lib, undagi ma'lumotlarga tayanildi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR. Boburning "ahli ta'b"ni o'ziga yaqin olishi, ularga sharoit hozirlab, rag'batlantirishi, Hindistonga chorlab farmon bergani haqidagi ma'lumotlar yuqorida tilga olingan adabiy-tarixiy manbalardan, avvalo, "Boburnoma" da uchraydi. Muallif 1525-1526-yil voqealari tasvirida shunday yozadi: "Har savdogar va har tolibi ilm va balki har kishikim, bu cherikda hamroh edilar, barcha in'om va baxshishdin hazzi vofir va nasibi komil eltilar... Cherikta bo'lmag'onlarg'a ham bu xizonadan qalin in'om va baxshishlar bordi... Samarqand va Xuroson va Qoshg'ar va Iroqqa uruq-qayosh uchun savg'otlar yiborildi.

Samarqand va Xurosondag'i mashoyixqa nuzur bordi. Makka va Madinag'a ham nazr bordi. Kobul viloyati bila Varsak sadasining jondor boshig'a erdin va xotundin banda va ozoddin, bolig' va nobolig'din biror shohruxiy in'om bo'ldi". [6: 210]

Ma'lum bo'ladiki, Bobur nafaqat o'z atrofi, shuningdek, uzoqdagi qarindosh va qarindosh bo'lmagan nufuzli va oddiy kishilarga, erkak va ayollarga e'tiborli bo'lgan, saxovatpesha podshoh sifatida nom qozongan. Xuddi shunday ma'lumotlar Boburning qizi Gulbadanbegimning "Humoyunnoma" asarida yanada aniqroq tasvirlarda uchraydi: "Tevarak-atrofdagi hamma viloyatlarga elchilar jo'natilib, kimda-kim agar bizga kelib mulozimat qilsa, har tomonlama ra'iyat qilamiz, agar ular ichida ota-bobolarimizga xizmat qilgan kishilar bo'lsa, katta mukofotga sazovor bo'ladilar; Sohibqiron va Chingizxon avlodidan bo'lgan har bir kishi bizning dargohimizga qaytib kelsin; Xudo bizga Hindiston mamlakatini ato qildi, kelsinlar, to bu davlatni birga so'raylik, degan qat'iy buyruq yuborildi". [5.37] Gulbadanbegimning hikoya qilishicha, Kobuldan Hindistonga tashrif buyurganlar ichida Zahiriddin Bobur xonadoniga mansub 96 ta ayol ham bo'lgan. Ularning hammalariga turar joy va ko'ngillari tilagan in'omlar tayin qilingan. Xuddi shunday munosabat olim-u shoirlar, ijodkorlarga ham loyiq topilgan.

Temuriylar saltanatining qulashi, O'zbekxonlarning saltanat tepasiga kelishi, Xuroson va Movarounnahrda ijtimoiy-siyosiy hayotdagi talato'plar, adabiy muhitning ma'lum ma'noda parokandalashuvi kabi voqealar mahalliy aholining, ayniqsa, fan, san'at ahlining ma'lum bir qismi Hindiston sari azmi qaror qilishining asosiy sabablaridan biriga aylandi. E'tiborlisi, Bobur o'z faoliyati davomida uzluksiz jang-jadallarda yurganda ham adabiy davra suhbatlari, she'rxonliklar tashkil etishi, fan, san'at, madaniyat, adabiyot vakillariga alohida e'tibor qaratishi ko'pchilikka ma'lum edi. Shunday vaziyatda Zahiriddin Muhammad Boburning yuqoridagi kabi qarori e'tiborsiz qolmadi. Turli soha vakillari qatorida ijodkorlar ham Bobur saroyiga kelib adabiy muhit vakiliga aylandi.

Etiborlisi, Zahiriddin Muhammad Bobur ilm-fan, adabiyot homiysi va vakili sifatida Hindistonga kelgachgina emas, balki Andijon, Samarqand, Kobulda vaqtida ham o'z atrofiga ziyoli qatlam kishilarini birlashtirishga harakat qilgan, ularni qo'llab-quvvatlagan, tez-tez adabiy davralar tashkil etib, mushoiralar o'tkazgan. Buni biz «Boburnoma»da 1925-yil Hindistonga yurish boshlangan safar oyi avvalidagi voqealar tasvirida yaqqol kuzatamiz: "Jolada she'r aytur el xeyli bor edi. Misli, Shayx Abul Vajd va Shayx Zayn va Mullo Alixon va Turdibek Xoksor,

yana ba'zilar ham bor edi. Suhbatta Muhammad Solihning bu bayti mazkur bo'ldikim:

Joye ki tu boshi digarero chi kunad kas,
Mahbubii har ishvagarero chi kunad kas,
dedukkim, bu go'shada aytsunlar. Tab'i nazmi bor el aytmog maqomida bo'ldilar". [6: 185]

Ma'lum bo'ladiki, Bobur harbiy yurishlari davomida ham o'z atrofiga shoir-u ijodkorlarni birlashtirgan, mushoiralar o'tkazgan, o'z iqtidorini charxlab turgan. Shu o'rinda "Boburnoma"ning noma'lum kotibi tomonidan yozilgan ushbu parchaga ham e'tibor qaratsak: "Va bir necha ahli ta'bkim, ushbu podshoh doimul avqot suhbatdin ayru qo'yimas edi" [6: 267]. Demak, Bobur doimo shoir va san'at ahlining suhbatidan bahramand bo'lgan, ularni o'ziga yaqin olgan, safarlarda, harbiy yurishlarda ularni o'ziga yo'ldosh qilgan. Ushbu parchadagi "*doimul avqot suhbatdin ayru qo'yimas edi*" jumlasini mazmuni va uslubidan ma'lum bo'ladiki, "Boburnoma"ning noma'lum kotibi Boburni yaqindan tanigan, u bilan hamsuhbat bo'lgan, chamasi. Agar shunday bo'lsa, bu ma'lumotlarning qiymati yuqori. Kotib ana shu "ahli tab'"ning kimligiga to'xtalar ekan, ularning nomlarini birma-bir tilga olib, shunday yozadi: "Abulbaqokim, ilmi hikmat bobida bebadal edi. Va Shayx Zayn sadrkim, Zayniddin Xavofiyning nabirasi erdi: hiddati tab'i bor edi, nazm va inshodin saliqalig' va Humoyun podshoh zamonida umarolig' ham topib edi. Va Shayx Abulvohid Forig'iykim, Shayx Zayn Xavofiyning abasi bo'lur edi, xushta'b va she'r ham aytur edi. Va Sulton Muhammad ko'sakim, Mir Alisherning musohiblaridin erdikim, podshoh suhbatida izzat topib, sarafroz bo'lub erdi. Va Shihob Muammoyikim, "Faqiriy" taxallus qilib edi, fazoyil va she'rdin nasibasi bor edi. Va Mavlono Yusufi tabibkim, ani Xurosondin tilatib edilar, nazb ko'rmog'din va tashxis qilmog' aning ishi edi. Va Surx Vadoiykim, turkiy va forsiyda nazm aytur edi. Va Mullo Baqoiyning saliqasi ko'p erdi va "Maxzanul asror" vaznida podshoh otig'a masnaviy aytib edi... Va Xondamir muarrixkim, turfa kishi edi. Tasoniflari borkim, xalq orasida mashhur: "Habib us-siyar" va "Xulosat ul-axbor" va "Dasturul - anvor" va o'zga tasniflari ham bor..." [6: 267-268]

Shuni ham aytish kerakki, "Boburnoma"da Hindiston turkiyzabon adabiyoti vakillarining ayrimlarininggina nomlari uchraydi. Bu tabiiy. Chunki Hindiston turkiyzabon adabiyoti vakillarining katta qismi Bobur hayotligi davrida emas, keyingi davr boburiylar saroyida yashab, ijod qilganlar, shuhrat qozonganlar. "Boburnoma"ning Hindiston tasvirigacha bo'lgan qismida tilga olingan Mavlono Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Shayxim Suhayliy, Husayn Ali Tufayliy, Osafiy, Binoiy, Sayfiy Buxoriy, Abdulloyi, Mir Husayn Muammoiy, Mulla

Muhammad Badaxshiy, Yusuf Badiiy, Ohiy, Muhammad Solih, Shoh Husayn Komiy, Hiloliy, Ahliy kabi ijodkorlar va ularning ijodi an'analarining targ'iboti ham bu yurtda Xuroson va Movarounnahrdagi turkiy va forsiy tildagi adabiyot haqida tasavvur beradi. Yuqorida aytilganidek, «Boburnoma»ning 1525-1526-yil voqealari tafsiloti berilgan qismlari hamda undan keyingi sahifalarida tab'i nazmi bo'lgan yana bir qator shoh-u shahzodalar, amaldorlar, turli ijtimoiy tabaqadan yetishib chiqqan shoirlar nomi eslatiladi, ular faoliyatiga doir ayrim ishoralar yo'l-yo'lakay bo'lsa-da, o'rtaga tashlanadi. Xususan, Shayx Abul Vajd, Shayx Zayn, Mullo Alixon, Turdibek, Xoksor, Bayramxon, Mirzoxon (Bayramxonning o'g'li), Xavofiy, Forig'iy, Faqiriy, Mavlono Yusufi Tabib, Surx Vadoiy, «Maxzan ul-asror» vaznida masnaviy aytgan Mullo Baqoiy kabi turkiy va forsiyda ijod qiluvchi shoir va yozuvchilarning zikr qilishi yoki Boburning Xo'ja Kalon bilan turkiy va forsiydagi yozishmalari, shuningdek, o'g'illari Humoyun, Komron, Hindolga o'zining ba'zi tarjimalari, maktub hamda she'rlarini yuborib turganligi ayni adabiy muhitning shakllanish kurtaklarini ko'rsatadi. [6: 185; 10: 100-101]

Xulosa. Zahiriddin Muhammad Boburning serqirra ijodi va saroy adabiy muhiti ko'pgina safdosh va yosh qalamkashlarni ilhomlantirib, Hindiston turkiyzabon adabiyotining ravnaqi uchun mustahkam asos yaratdi. Uning ijodiy va siyosiy faoliyatining eng muhim jihati shundaki, shoh Bobur umrining so'nggi yillaridagi orzusi - butun Hindistonni yagona kuch ostida birlashtirishga ulgurmagan bo'lsa ham, ammo shoir Bobur o'z xalqi adabiyotini osmono'par Himolay tog'laridan olib o'tib, uning badiiyatini Hindistonda kengaytirish sharafiga muyassar bo'ldi. "Boburnoma" asari esa bu adabiy muhitni o'rganishda asosiy va birlamchi manbadir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Азимджанова С. Индийский диван Бабур. - Т.: «Фан», 1966.
2. Бекжон И. Бобурийлар маданиятига оид манба.//«Ўзбекистон адабиёти ва санъати» газетаси, 2013 йил 23-сон.
3. Boltaboyev H. Boburshoh va boburiylar davrini aks ettirgan turk adiblarining tazkiralari.// "Zahiraddin Məhəmməd Babur və Azərbaycan", Konferensiya materiallari, 2021. - Bakı. - B.212.
4. Воҳидов Р. Биз билган ва билмаган Бобур. Адабий ўйлар. -Т.: "Маънавият", 2008. - Б.120.
5. Гулбаданбегим Захириддин Бобур қизи. Ҳумоюннома. //Форс тилидан С.Азимжонова тарж.- Т.: "Маънавият", 1998. - Б.104.

6. Захириддин Муҳаммад Бобур. Бобурнома. “Шарқ”, -Т.: 2002. -Б. 336+32.
7. Иномхожиев Р. XVI аср Ҳиндистон адабий ҳаётида туркий-форсий икки тиллилик. -Т.: Фан, 1993. - Б.208.
8. Низомиддинов И. Маданий ҳамкорлигимиз саҳифаларидан. -Т.: «Фан», 1987.- Б.54.
9. Низомиддинов Н. Бобурийлар даври Ҳиндистон туркий тили ва адабиёти. - Тошкент: 2010.
10. Низомиддинов Н. Буюк Бобурийлар тарихи (XVI-XIX аср).-Т.: “Fan va texnologiya”, 2012, - Б.516.
11. Ходжаева Т.А.Ўзбекистон ва Ҳиндистон адабий алоқалари тарихидан. -Т.: Тошкент давлат шарқшунослик институти, 2011. - Б.128.
12. Ҳасанов С. Азфарийнинг илмий-адабий мероси. - Т.: «Адабий мерос», 1977. 9-сон.
13. Ҳасанов С. Мирзо Комрон девони. - Т.: «Адабий мерос», 1986, 3-4 сонлар.